



G'AZNACHILIK FAOLIYATIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN YANGI ISLOHOTLAR

Sholdarov Dilshod Azimiddinovich,

PhD, Dotsent, Kafedra mudiri, "Byudjet hisobi va g'aznachilik ishi" kafedrasi, Toshkent moliya instituti, Toshkent, O'zbekiston

Email: sholdarov_dilshod@tfi.uz

ORCID: 0000-0001-9020-8697.

Inoyatov Mardonbek Mo'min o'g'li,

O'qituvchi, "Byudjet hisobi va g'aznachilik ishi" kafedrasi, Toshkent moliya instituti, Toshkent, O'zbekiston

Email: inoyatovmardonbek@gmail.com

ORCID: 0009-0007-6518-871X

NEW REFORMS IMPLEMENTED IN TREASURY ACTIVITIES

Sholdarov Dilshod Azimiddinovich,

PhD, Associate Professor, Department of Budget Accounting and Treasury, Tashkent Institute of Finance, Tashkent, Uzbekistan

Email: sholdarov_dilshod@tfi.uz

ORCID: 0000-0001-9020-8697.

Inoyatov Mardonbek Mo'min o'g'li,

Teacher of the "Budget accounting and treasury work" department, Tashkent Institute of Finance, Tashkent, Uzbekistan

Email: inoyatovmardonbek@gmail.com

ORCID: 0009-0007-6518-871X

JEL Classification: M1, M4, M48

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda g'aznachilik tizimini joriy qilinishi hamda uning natijasida erishilgan yutuqlar tahlil qilingan. Tahlil natijalariga asoslangan holda tizimni yanada rivojlantirish istiqbollari keltirib o'tilgan. G'aznachilik faoliyatining mazmun mohiyati, uning ishlash mexanizmi, bugungi kundagi holati, davlat moliyasida tutgan o'рни va tizimdagi yangiliklar haqida so'z yuritilgan. G'aznachilik tizimining qanday bosqichlarda amalga oshirilishi va unga yuklatilgan vazifalar ham ko'rsatib o'tilgan. Belgilangan vazifalarning natijasida yuzaga kelgan samaradorlik ko'rsatib o'tilgan. Mamlakatimizda davlat byudjetining g'azna ijrosini samarali tashkil qilinishiga barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini qo'lga kiritish boshlaganimizdan keyingina

muvaffaq bo'lindi. O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimi bo'yicha ham keng qamrovga ega bo'lgan samarali natijani berayotgan islohatlar joriy qilinmoqda. Davlat byudjetining g'azna ijrosi davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining barcha daromadlarini, shuningdek, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tushumlarini yagona g'azna hisobvaraqqa jamlash va ularning barcha xarajatlarini shu hisobvaraqdan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari, davlat qarzlari va ularga xizmat ko'rsatish jarayonlarining tezkor nazoratini va monitoringini olib borish, davlat mablag'larining samarali ishlatilishini ta'minlash, davlat moliyaviy

resurslarining harakati to'g'risida operativ tarzda ma'lumotlarni jamlash imkonini beradi. Hozirgi zamonaviy iqtisodiy yangiliklardan kelib chiqib aytish mumkinki, byudjet jarayonini samarali tashkil qilishning amaliy ishlarini g'aznachilik nazoratidan chetda tasavvur qilib bo'lmaydi. Negaki, g'aznachilik tizimi byudjet daromadlari va xarajatlarini yagona g'azna hisobvarag'iga jalb qiladi hamda shu hisobvaraqdan samarali, to'g'ri va oqilona sarflanishini nazorat qiladi. Bunday islohotlarning ijobiy natijalari davlat byudjeti g'azna ijrosining natijaviy tarzda joriy qilinishida yaqqol namoyon bo'ldi deya aytishimiz mumkin. Bugungi kunda g'aznachilik tizimidagi shtatlar birligining qisqarishi orqali tizimdagi ishlarning avtomatlashtirilishi ko'zda tutilgan.

Abstract. This article analyzes the introduction of the treasury system in our country and the achievements as a result of it. Based on the results of the analysis, the prospects for further development of the system are presented. The essence of treasury activity, its working mechanism, its current state, its role in state finances, and innovations in the system are discussed. The stages of implementation of the treasury system and the tasks assigned to it are also shown. The efficiency resulting from the assigned tasks is shown. In our country, it was possible to effectively organize the treasury execution of the state budget only after we began to obtain indicators of sustainable development. Effective reforms are being introduced in the public finance management system of the Republic of Uzbekistan. We can say that the positive results of such reforms were clearly manifested in the effective implementation of the state budget treasury. The treasury execution of the state budget envisages the accumulation of all revenues of the state budget and state special funds, as well as the receipts of budget organizations from extra-budgetary funds into a single treasury

account and the implementation of all their expenses from this account. This is to carry out rapid control and monitoring of the state budget, extra-budgetary funds, extra-budgetary funds of budgetary organizations, state debts and their servicing processes, to ensure the effective use of state funds, the correct movement of state financial resources. Based on current modern economic innovations, it can be said that the practical work of effectively organizing the budget process cannot be imagined outside of the control of the treasury. After all, the treasury system attracts budget revenues and expenses to a single treasury account and controls the effective, correct and reasonable spending from this account. Today, automation of work in the system is envisaged by reducing the number of states in the treasury system.

Kalit so'zlar: byudjet tizimi, davlat byudjeti, davlat byudjetini boshqarish, g'azna, g'aznachilik, moliya.

Key words: budget system, finance, state budget, state budget management, treasury.

Kirish. Mamlakatimizda davlat moliyasi sohasida institutsional islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar negizida dastlab davlat budjeti ijrosiga jahon tajribasida sinalgan, budjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlovchi g'aznachilik tizimi joriy qilindi.

G'aznachilik tizimlari hukumatlarga moliyaviy rejalar tayyorlash, yillik byudjetlarni amalga oshirish, pul mablag'larini boshqarish, fiskal hisob-kitoblarni ta'minlash, nazorat va javobgarlikni ta'minlash imkonini beradi. Ushbu tizimlarning dizayni turli mamlakatlarda sezilarli darajada farq qiladi, bu ustuvorliklar, mamlakat imkoniyatlari va siyosiy an'analardagi farqlarni aks ettiradi.[12]

Bugungi kunda mamlakatimizda moliya va g'aznachilik tarmoqlarida qator islohotlar amalga oshirilib kelmoqda.

Tizimda amalga oshirilayotgan yangilik va o'zgarishlarning joriy qilinishi uning iqtisodiy jihatdan yanda takomillashishiga zamin yaratmoqda. Misol uchun, davlat moliyasini yaxshilash maqsadida tizimda institutsional islohatlar keng miqyosda amalga oshirilmoqda. Buni natijasi o'laroq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev takidlaganlaridek: "Keng ko'lamli va samarali islohotlarimiz natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 80 milliard dollardan oshdi. Iqtisodiyotimizga shu yilning o'zida 8 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi, eksportimiz esa, 19 milliard dollarga yetdi. Biz bu yil tariximizda ilk bor pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdorini minimal iste'mol xarajatlaridan kam bo'lmagan darajaga olib chiqdik. Misol uchun, 2017 yilda kam ta'minlangan 500 ming oila ijtimoiy yordam olgan bo'lsa, bugunga kelib 2 milliondan ortiq oilalarga ko'mak berilmoqda. Ajratilayotgan mablag'lar esa, 7 barobar ko'paytirilib, yiliga 11 trillion so'mga yetdi." [6]

Ushbu amaliy ishlar negizida avvalo, davlat byudjeti ijrrosiga dunyo tan olgan va xorijiy mamlakatlar sinovidan o'tgan, byudjet mablag'laridan oqilona hamda samarali foydalanishni ta'minlab beruvchi g'aznachilik tizimining joriy etilishi alohida e'tirof bilan takidlab o'tish lozim.

Mamlakatimizda davlat byudjetining g'azna ijrosini samarali tashkil qilinishiga barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini qo'lga kiritish boshlaganimizdan keyingina muvaffaq bo'lindi. O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimi bo'yicha ham keng qamrovga ega bo'lgan samarali natijani berayotgan islohatlar joriy qilinmoqda. Bunday islohotlarning ijobiy natijalari davlat byudjeti g'azna ijrosining natijaviy tarzda joriy qilinishida yaqqol namoyon bo'ldi deya aytishimiz mumkin.

Material va metod. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlarida Davlat byudjeti ijrosida g'aznachilik tizimidan foydalanish, davlat moliyasini boshqarish islohotlarida g'aznachilik tizimining ahamiyatini oshirish, byudjet intizomiga qattiq rioya qilish hamda davlat moliyaviy nazorati jarayonida g'aznachilik nazoratini takomillashtirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. [11]

Davlat byudjetini boshqarishda g'aznachilik tizimidan foydalanish masalalari, g'aznachilik axborot tizimining dasturiy ta'minoti, G'aznachilik boshqarmalari va bo'linmalarining vazifalari va funksiyalarini takomillashtirish masalalari xorijiy va mahalliy qator olimlar tomonidan taqdiq etilgan.

Jahon olimlari Taqi Aldeen T. Mhamod Darbi, Suleiman Essa Al Aazzabilarning fikricha, "G'aznachilik valyuta vositalaridan foydalangan holda daromadni oshirish uchun resurslar va majburiyatlarni boshqarish sifatida tavsiflanadi va bir pulning boshqa pulga aylanishi sifatida tavsiflanishi mumkin. Odatda xorijiy valyuta global almashinuvdan olinadi. Yuk jo'natuvchi ham, eksportchi ham o'z aksiyalarini baholash imkoniyatini berish uchun savdo stavkalarini hisobga olishlari kerak. Qaysi pulda kvitansiya nomi yozilgan bo'lsa, chet el talab qilinadi. Bugungi kunda bu kunlik aylanmaning taxminan 95% dan 98% gacha gipotetik asosga ega. Ushbu ulkan nazariy aylanmani hisobga olgan holda, bozorlar hozirgi vaqtda zamonaviy yozishmalar tashkiloti bilan bog'langan va a'zolar tomonidan kompyuterlardan foydalanish orqali kuzatilmoqda." [13]

Jahon olimi, E.Tendberg fikriga ko'ra, "xar qanday mamlakatning g'aznachilik tizimi quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: xuquqiy va institutsional asos; qo'llab-quvvatlovchi

tuzilma; moliyaviy rejalashtirish; majburiyatlarni nazorat qilish, byudjet likvidligini va aktivlarni boshqarish; qarzlarni boshqarish; daromadlarni boshqarish; to'lovlarni boshqarish; axborot tizimi; ichki audit; byudjet hisobi va hisobot"[10].

Yirik mutaxassis va amaliyotchi V.G.Kilberg "O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimiga boshqichma-bosqich o'tishning asosiy quyidagi elementlarini ko'rsatadi: huquqiy-me'yoriy baza yaratish; g'aznachilikning moddiy-texnik bazasini yaratish; g'aznachilik tizimi uchun kadrlarni tayyorlash; g'aznachilikning axborot tizimini dasturiy majmualar bilan ta'minlash"[8].

D.H.Po'latov, B.I.Nurmuxamedova "g'aznachilik faoliyat ko'rsatishi uchun beshta asosiy tashkiliy elementlari mavjud bo'lishi va o'zaro bog'liqlikda amal qilishi zarur"[9], degan fikrni ilgari surishadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni takidlashimiz mumkinki, g'aznachilik tizimi mamlakatimiz budjet tizimini samarali boshqarishda muhim bo'g'in hisoblanadi.

Natijalar. O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasini boshqarish tizimida olib borilayotgan islohotlar, qator vazifalar bilan birgalikda, davlat byudjetining g'azna ijrosiga bosqichma-bosqich o'tishni va uning faoliyat mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bunda zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida davlat mablag'larining harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlash, qayta ishlash, uzatish usullarini o'zlashtirish asosida davlat moliyasini boshqarishning samarali usul va vositalarini shakllantirish va muvofiq holda ishlashini ta'minlash zarur bo'ladi.

Mamlakatimizda davlat byudjetining g'azna ijrosini samarali tadbiiq etishga faqatgina barqaror rivojlanish

ko'rsatkichlariga erishganimizdan keyingina muvaffaq bo'lindi. O'zbekiston hukumati davlat moliyasini boshqarish tizimida ham keng qamrovli islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmoqda. Bu islohotlarning ijobiy natijalarini davlat byudjeti g'azna ijrosining muvaffaqiyatli joriy etilishida ko'rishimiz mumkin.

Davlat byudjetining g'azna ijrosi davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining barcha daromadlarini, shuningdek, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tushumlarini yagona g'azna hisobvaraqa jamlash va ularning barcha xarajatlarini shu hisobraqamdan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari, davlat qarzlari va ularga xizmat ko'rsatish jarayonlarining tezkor nazoratini va monitoringini olib borish, davlat mablag'larining samarali ishlatilishini ta'minlash, davlat moliyaviy resurslarining harakati to'g'risida operativ tarzda ma'lumotlarni jamlash imkonini beradi.

Taraqqiyotimizning bugungi sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotida sodir bo'layotgan tarkibiy o'zgarishlar, butun moliya tizimida, uning markaziy bo'g'ini bo'lgan davlat moliyasida amalga oshirilayotgan islohotlar davlat moliyasini boshqarish masalalarida muayyan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish zarurligini talab qilmoqda. Bunday sharoitda nafaqat davlat moliyasi haqidagi ma'lum nazariy bilimlarga ega bo'lgan, balki davlat byudjeti g'azna ijrosi jarayonlarida vujudga keladigan holatlarni tushuna oladigan, byudjet ijrosi ishtirokchilari bo'lgan moliya organlari, g'aznachilik bo'linmalari, byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar amaliy faoliyatini samarali tashkil qila oladigan, davlat mablag'larini samarali boshqarishga qaratilgan boshqaruv

qarorlarini qabul qila oladigan zamonaviy mutaxassislar tayyorlash birinchi darajali ahamiyatga egadir. Shu sababli davlat moliyasi uchun tashabbuskor, ijodiy fikrlaydigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashda byudjet-moliya va byudjetning g'azna ijrosi nazariyasi va amaliyotini o'rganishga muhim o'rin beriladi.

G'aznachilikni tashkil etishning asosiy maqsadi davlatning moliyaviy resurslarini samarali boshqarilishiga ta'sir etishdan iboratdir. G'aznachilik deb ataladigan organlar davlat moliyasini boshqarishda taalluqli turli vazifalarni bajaradilar. Jumladan, davlat byudjetining g'azna ijrosi Davlat byudjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisobvarag'iga kiritishdan, shuningdek Davlat byudjetining xarajatlarini ushbu hisobvaraqdan sarflashdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun esa albatta g'aznachilikning o'z vazifalari bo'lishi kerak.

G'aznachilikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat[3]:

- Davlat byudjetining kassa ijrosi;
- Davlat byudjeti mablag'larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- Davlat byudjeti mablag'larini boshqarish, yagona g'azna hisobvarag'ini va hududiy g'azna hisobvaraqlarni yuritish;
- Byudjet mablag'lari oluvchining tovar yetkazib beruvchi (ish bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi) bilan tuzilgan shartnomasini, shuningdek buyurtmachining Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish uchun tuzilgan shartnomasini majburiy ro'yxatdan o'tkazish;
- Davlat byudjetida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxslar uchun mablag'lar nazarda tutilgan bo'lsa, o'sha yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning

topshirig'iga binoan to'lovlarni amalga oshirish;

- Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobini yuritish;
 - Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi axborotni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va hisobotni tuzish;
 - O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish
 - O'zbekiston Respublikasiga kelayotgan insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish vositalari, shu jumladan nomoddiy shakldagi vositalar to'g'risidagi axborotlarni to'plash va ishlash.
 - byudjet tashkilotlarining chet el valyutasidagi daromadlari va xarajatlari hisobini yuritish hamda maqsadli ishlatilishini ta'minlash;
 - byudjet tashkilotlari uchun chet el valyutasidagi shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ochish va yopish;
 - valyuta mablag'lari hisobidan jalb qilingan xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari qarzlari va kreditlarini qaytarish hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlariga asosan Moliya vazirligi tomonidan to'lovlari amalga oshiriladigan xalqaro moliyaviy institutlar va tashkilotlarga a'zolik badallarini to'lash;
 - valyuta mablag'larini boshqarish, chet el valyutadagi mablag'larni depozitlarga joylashtirish va byudjet ssudasi va subsidiyalarini ajratish.
- Hozirgi zamonaviy iqtisodiy yangiliklardan kelib chiqib aytish mumkinki, byudjet jarayonini samarali tashkil qilishning amaliy ishlarini g'aznachilik nazoratidan chetda tasavvur qilib bo'lmaydi. Negaki, g'aznachilik tizimi byudjet daromadlari va xarajatlarini yagona g'azna hisobvarag'iga jalb qiladi hamda shu

hisobvaraقدan samarli, to'g'ri va oqilona sarflanishini nazorat qiladi

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tizimida byudjetni g'aznachilik orqali ijro etish uchun mas'ul bo'lgan institutsional tuzilma shakllantirildi. Bu faoliyat bir necha bosqichlarda amalga oshirildi. Ularni xronologik jihatdan quyidagicha tavsiflash mumkin[7]:

– 2002 yilda "Davlat moliyasini boshkarishni isloh qilish" loyihasi ma'qullandi.

– 2004 yilda O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi Qonunini qabul qilindi.

– 2005 yilda Moliya vazirligi tarkibida davlat byudjetining g'azna ijrosini joriy qilish uslubiyoti boshqarmasi tashkil etildi.

– 2007 yilda respublikaning barcha hududlarida davlat byudjetining g'azna ijrosi elementlari joriy etildi.

– 2007 yilda Davlat byudjetining g'azna ijrosini tadbiq etish hisobiga byudjet tizimini yanada isloh etish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi byudjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida Moliya vazirligi Davlat byudjetining g'azna ijrosini tadbiq etish va uslubiyoti boshqarmasi hamda mahalliy moliya organlarining g'aznachilik bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi.

– 2009 yilda davlat byudjeti bilan birgalikda, davlat maqsadli jamg'armalarining ijrosi G'aznachilikka qamrab olindi.

– 2010 yildan boshlab tajriba tariqasida davlat byudjetining bojxona orqali

tushuvchi daromadlari ijrosi g'aznachilik orqali amalga oshirila boshladi

– 2011 yildan boshlab yangi byudjet tasnifiga asoslangan, davlat byudjeti g'azna ijrosini amalga oshirishga xizmat qiluvchi G'aznachilik dasturiy majmui ishga tushirildi.

– 2012 yilning 1 yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi qonuni talablaridan kelib chiqib, Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari G'aznachilikning Yagona g'azna hisobvarag'idan amalga oshirila boshlandi.

– 2014 yildan Byudjet kodeksining amalga kiritilishi byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosini tashkil etishning qonuniy bazasini yanada mustahkamladi.

– 2016 yilda respublikamiz bir necha yillardan buyon davlat moliyasini isloh etishda davlat byudjet daromadlarini g'azna ijrosi bilan qamrab olish islohotlarning eng muhim bosqichi hisoblanadi.

– 2017 yildan byudjet tizimi byudjetlari g'azna ijrosini amalga oshirish "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari" da belgilangan mexanizm asosida tashkil etildi. Bunda byudjetdan mablag' oluvchilarning yuridik va moliyaviy majburiyatlarini ro'yhatdan o'tkazishda tegishla hujjatlarni UzASBO tizimi orqali g'aznachilik bo'linmalariga uzatish va O'RMVAT tizimida hisobga olishning amaldagi byurokratik tizimdan elektron tizimiga o'tilishi asosida g'aznachilik ijrosining yanada samarali ijrosi ta'minlandi.

– 2018 yil da davlat va korporativ xaridlar tizimini zamonaviy uslub va uslubiyot asosida tashkil etish chora tadbirlari belgilandi. Bunda davlat xaridlarini samarali, korruptsiyadan xoli va shaffof tarzda tashkil etilishi maqsadida qonun hujjatlari shakllantirildi.



Keyingi yillar davomida ham bir qator samarali ishlar amalga oshirildi va buning natijasida g'aznachilik tizimida rivojlanish kuzatildi.

Munozara. Yuqorida amalga oshirilgan ishlar naztjasi o'laroq shuni ta'kidlash munkinki, qator yillar mobaynida g'aznachilik tizimida yuzaga kelgan dolzarb muammolarni bartaraf etish maqsadida tizimli o'zgarishlar amalga oshirilgan. Ular natijasida esa budjet tizimida yuqori va natijador islohotlarning yuzaga kelganini takidlashimiz mumkin.

2023 yilning 1-yanvariga qadar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tashkiliy strukturasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021 yil 14 dekabrda 161-sonli "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tizimini isloh qilish va tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi buyrug'iga binoan quyidagicha edi. (1-rasm)

Tashkiliy tuzilmadan ko'rinib turibdiki, rahbariyat hodimlari 4ta, ulardan boshqaruv hodimlari 4 nafar. Davlat xaridlari departamenti jami shtatlar birligi 55 nafar shundan boshqaruv xodimlari 14 ta va ishlab chiqarish xodimlari 41ta. Byudjet ijrosi va to'lovlarni boshqarish departamenti shtat birligi bo'yicha 51ta shundan boshqaruv xodimlari 10 ta va ishlab chiqarish xodimlari 41 tani tashkil etadi[4].

2023 yil 1 yanvardan boshlab esa Prezidentimizning 2022 yil 21 dekabrda PF-269 sonli "Yangi O'zbekiston Ma'muriy islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni hamda 2023 yil 25 yanvarda PF-14 sonli "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmonlar ijrosini ta'minlashga doir O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining 2023 yil

7 fevralda 13-sonli buyrug'iga ko'ra Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasi va hududiy bo'linmalarining vaqtinchalik shtatlar birligi tasdiqlandi. Unga ko'ra G'aznachilik xizmati qo'mitasi markaziy apparati 94 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar G'aznachilik xizmati boshqarmalari 244 ta, tuman(shahar) G'aznachilik xizmati bo'limlari 1006 ta shtat birligidan iborat[2].

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, g'aznachilik tizimida amalga oshirilayotgan ishlash jarayonida inson omilini kamaytirish va avtomatlashtirilgan tizim asosida yanada ish jarayoni samaradorligini oshirish ko'zda tutilgan. Yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy talablarga javob beradigan ixcham davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish, qaror qabul qilish va masalani ko'rib chiqish jarayonlarini soddalashtirish orqali davlat organlari rahbarlarining mas'uliyatini oshirish hamda ular faoliyatini natijadorlikka yo'naltirish, shuningdek, Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari dasturi ijrosini ta'minlash asosiy maqsaddir[1].

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni yanada takomillashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davrida O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimidagi o'tkazilayotgan tub islohotlar mohiyati moliya tizimida davlat byudjeti ijrosini takomillashtirish, g'aznachilik tizimida amalga oshirilayotgan yangiliklardan iborat. Misol tariqasida shuni takidlash munkinki, chek daftarchasining avtomatlashgan tizimiga o'tilishi, g'aznachilikda 24/7 rejimini joriy qilinishi va buni amalga oshirish uchun bank tizimi bilan uzviy bog'liqlikni yuzaga keltirish, hamda DMBAT 2 dasturini ishga tushirilishi

rejalashtirilmoqda. Bu yangiliklardan quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Tizimda amalga oshirilayotgan avtomatlashtirilgan jarayon sohadagi ishlar ko'almi yanda jadallashtirish lozim;

2. Avtomatlashdan tizimning yangi DMBAT 2 ga o'tishi eski dasturdagi kamchiliklarni bartaraf etish;

3. Yangiliklardan ko'zda tutilgan asosiy maqsad – byudjet mablag'larini samarali boshqarish, byudjet mablag'larining moliyaviy nazoratini kuchaytirish va barcha byudjet tashkilotlarining xarajatlarini boshqarishda g'aznachilik faoliyatining samarali ishlashiga erishishdir.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni keltirishimiz lozim hisoblanadi:

1. Byudjet mablag'laridan samarali foydalanishda inson omilini yanda kamaytirish, ya'ni amaliot jarayonida kuzatilayotgan byurakratiyani yo'qotish;


2. Jahon tajribasiga tayangan holatda byudjet tashkilotlariga kelajakda ma'lum bir xarajatlarni amalga oshirishda erkinlik berish;

3. G'aznachilik xizmatiga soliqlar yig'imi nazorati vazifasini yuklash kerak deb hisoblaymiz.

Keltirib o'tilgan takliflar kelajakdagi ishlarda amalga oshirilsa, g'aznachilik tizimidagi ishlar salohiyati yanada yaxshilandi hamda byudjet mablag'laridan samarali foydalanish ortadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tashkiliy tuzilmasi

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021 yil "14" dekabrda 161 - son buyrugiga 1 - ilova



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tashkiliy tuzilmasi.[4]

Moliya vazirligi G'aznachiligi Markaziy apparati jami xodimlarning cheklangan soni - 138 b. ulardan: boshqaruv xodimlari soni- 49 b., ishlab chiqarish xodimlari soni- 89 b.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.12.2022 yildagi PF-269-son "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida".
2. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi PF-14 son Farmoni ijrosini ta'minlashga doir navbatdagi choralar to'g'risida.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.03.2007 yildagi 53-son "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida".
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi buyrug'i, 14.12.2021 yildagi 161-son "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tizmini isloh qilish va tashkiliy tuzilmasini yanda takomillashtirish to'g'risida"
5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi buyrug'i, 07.02.2023 yildagi №13-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasi.
7. A. Tuychiyev, D. Tashmuhamedova. G'aznachilik: darslik / - Toshkent : IQTISOD-MOLIYA, 2019.
8. Kilberg V.G. "O'zbekiston Respublikasida Davlat byudjetining g'aznachilik ijrosi elementlari va bosqichlari. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida Davlat byudjetini prognozlash, ijro etish va nazorat". Moliya. 2006-S.76
9. Pulatov D.H., Nurmuxamedova B.I. "G'aznachilik". Darslik. Toshkent. 2014.-B.38-42.
10. Tandberg E. Treasury System Design: A Value Chain Approach. IMF Working Paper., 2005., no 05/153 28 p. URL: <https://ssrn.com/abstract=888022>
11. Kasimova G, Abdurasulov M. Maqola / "G'aznachilikda kassali rejalashtirish va byudjet tashkilotlari xarajatlarini to'lash tartibi" 2021 yil
12. <https://www.imf.org/en/Publications/WP/Issues/2016/12/31/Treasury-System-Design-A-Value-Chain-Approach-18410>
13. <https://www.scirp.org/journal/paperinformation.aspx?paperid=114100>